

O'SMIRLIK DAVRIDA IDROKNING SHAKLLANISHI HAMDA BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Ismailova Maftuna Umar qizi

Namangan viloyati Chust tumani 7-AFChO'SMMI

amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

O'smirlik davri (taxminan 11–15/16 yosh) shaxs rivojlanishida eng murakkab va muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda nafaqat jismoniy va ijtimoiy o'zgarishlar, balki bilish jarayonlari va idrokning sifat jihatdan yangilanishi yuz beradi. O'smir atrof-muhitni avvalgidan chuqurroq, tanqidiyroq va mantiqiyroq idrok qila boshlaydi.

Kalit so'zlar: *tafakkur, idrok, xotira, nutq, intellekt, diqqat, mustaqil fikrlash.*

KIRISH

1. O'smirlik davrida idrokning shakllanishi

Idrok-bu shaxsning tashqi olamdagi predmet va hodisalarni yaxlit, ma'noli va ongli aks ettirish jarayonidir.

O'smirlik davrida idrokning asosiy xususiyatlari:

Tanqidiy idrok rivojlanadi (ko'rilgan va eshitilgan narsani tahlil qilish).

Mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan idrok shakllanadi.

Idrok shaxsiy tajriba va qiziqishlar bilan bog'lanadi.

Emotsional holat idrokka kuchli ta'sir ko'rsatadi.

◆ O'smirlar kattalarning fikriga ko'r-ko'rona emas, balki o'z qarashlari orqali munosabat bildirib boshlaydilar.

2. Bilish jarayonlarining rivojlanishi

2.1. Diqqat

Ixtiyoriy diqqat kuchayadi.

Uzoq vaqt davomida diqqatni saqlash qobiliyati rivojlanadi.

Qiziqish bo'lmagan faoliyatda diqqat tez chalg'ishi mumkin.

2.2. Xotira

Mexanik xotiradan mantiqiy xotiraga o'tish kuzatiladi.

Ma'lumotni tushunib eslab qolish kuchayadi.

Mustaqil eslab qolish usullari paydo bo'ladi.

2.3. Tafakkur

Abstrakt va mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Sabab–oqibat munosabatlarini tushunish kuchayadi.

Mustaqil fikr bildirishga intilish ortadi.

2.4. Tasavvur

Ijodiy tasavvur kengayadi.

Orzu, ideal obrazlar shakllanadi.

Kelajak haqidagi rejalarga asos bo'ladi.

3. Bilish jarayonlari rivojlanishining psixologik vazifalari

O'smirlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi quyidagi psixologik vazifalarni bajaradi:

1. Shaxsiy fikr va dunyoqarashni shakllantirish
2. Mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlash
3. O'zini anglash (Men-konsepsiya)ni rivojlantirish
4. Ijtimoiy munosabatlarda ongli ishtirok etish
5. Kasbiy yo'nalishni tanlashga psixologik zamin yaratish
6. O'qishga bo'lgan ichki motivatsiyani shakllantirish

O'smirlik davrida idrok ancha tezkor va aniq bo'la boshlaydi. O'smirlar atrofmuhitdagi o'zgarishlarni tez ilg'ay olishadi, lekin ba'zan idrok subyektiv bo'lishi mumkin bo'ladi. Masalan, ularning dunyoqarashi va shaxsiy tajribalariga bog'liq holda, turli hodisalarni har xil qabul qilishlari mumkin. Aynan bu davrga kelib bolalar ilmiy bilimlardan tashqari hayotiy bilimlarni o'rganishga ehtiyoj seza boshlaydilar. Bu bilimlar bevosita o'smirlarga ijobiy quvonch bag'ishlabgina qolmasdan uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. M.V.Gamezo tomonidan "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish

tajriba vositalarida aks ettirilishi" ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan so'z vositasida va vositali atrof- muhit hodisalarini aks ettira olishni ta'kidlaydi.

Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq og'zaki va yozma nutning mavjud bo'lishi ham kuchli vosita hisoblanadi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish bo'lib hisoblanadi. U endi o'z nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardek so'zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Bunda o'qituvchining o'rni juda muhimdir. Chunki o'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namunali nutq hisoblanadi. Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarining to'g'ri rivojlanishi uchun muhim omil bo'lim hisoblanadi. 5-sinfdan 9-sinfga qadar og'zaki va yozma nutqlar tobora mustahkamlanib rivojlanib boradi. Xususan bu jarayonni o'quvchilarning kichik bir parchani so'zlab berishidan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, mulohaza yuritish hamda ularni asoslab berishigacha o'zgargani orqali bilishimiz mumkin. Yozma nutqining rivojlanganligini esa bema'lol erkin mavzulardan insho yoza olishi kabi misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Bu davrda nutqning rivojlanishi tezlashadi. O'smirlar yangi so'zlar o'rganadi, murakkab jumalarni shakllantirish qobiliyatiga ega bo'ladi va o'z fikrlarini ifodalashda ancha erkin bo'lishadi. Shuningdek, ular muayyan mavzularda bahslashish va dalillar keltirishni o'rganadilar. Demak, o'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bog'liq holatida amalga oshiriladi. Bu yoshda xotira hajmi va sifati oshadi. Ayniqsa, mantiqiy xotira (tushunchalar va sabab-oqibat aloqalarini eslab qolish) rivojlanadi. O'smirlar faktlarni mexanik eslab qolish o'rniga, ularni tushunib, mazmunli bog'lay olishga harakat qilishadi. O'smirlik davrida abstrakt va mantiqiy tafakkur shakllanadi. Agar maktab yoshidagi bolalar asosan konkret tafakkur orqali fikrlashsa, o'smirlar umumlashtirish, taxmin qilish va sababoqibat munosabatlarini tahlil qilishni o'rganadilar. Shu sababli, ular falsafiy va ijtimoiy mavzularga qiziq boshlaydi. O'smirlarda ixtiyoriy diqqat rivojlanadi, lekin u hali ham beqaror bo'lishi mumkin. Ular qiziqarli va mazmunli topshiriqlarga diqqatini uzoq muddat jamlay

olishadi, lekin zerikarli yoki majburiy ishlar ularning diqqatini tez chalg'itishi mumkin.

Oila, maktab va do'stlar bilish jarayonlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy muhitda ulg'aygan o'smirlar yangi bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishadi. Zamonaviy texnologiyalar o'smirlarning bilish jarayonlariga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, internet va raqamli texnologiyalar ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Boshqa tomondan esa, doimiy axborot oqimi diqqatni beqarorlashtirishi va xotirani zaiflashtirishi mumkin. O'smirlar an'anaviy yodlash usullaridan ko'ra, interfaol va amaliy o'rganish usullariga yaxshiroq moslashadilar. Shu sababli, zamonaviy ta'lim metodlari, masalan, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va tajriba o'tkazish, bilish jarayonlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Bilish jarayonlarini rivojlantirish yo'llari

1. Mustaqil fikrlashni rag'batlantirish – o'smirlarni mustaqil izlanishga undash va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish lozim. Bu esa ongini yanada rivojlanishiga yordam beradi.
2. Mantiqiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish – turli masalalar yechish, muammoli topshiriqlar bajarish va ijodiy yozuv mashqlari bajarish tafakkurni rivojlanishiga foydalidir.
3. Xotirani mustahkamlash – assotsiativ va vizualizatsiya usullari orqali xotira rivojlantirilishi mumkin. Xotirada bo'liqli, jonlantirish usulida xotirada saqlab qolishiga yordam beradi.
4. Diqqatni jamlashni o'rgatish – diqqat mashqlari va rejali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi.
5. O'qish va muloqot madaniyatini oshirish – kitob o'qish, munozaralarda qatnashish va yozma nutqni rivojlantirish orqali nutq qobiliyatini oshirish mumkin.

XULOSA

O'smirlik davrida bilish jarayonlari ancha jadallashib, insonning kelajakdagi intellektual rivojlanishiga zamin yaratadi. Idrok, tafakkur, xotira, diqqat va nutq

kabi asosiy bilish jarayonlari atrof-muhit, texnologiyalar va ta'lim metodlariga bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli, ushbu jarayonlarni ongli ravishda rivojlantirish o'smirlarning intellektual va shaxsiy o'sishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Melibayeva, R. N., Khashimova, M. K., Narmetova Yu, K., Komilova, M. O., & Bekmirov, T. R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. *International journal of scientific & technology research*, 9(03).
2. Karimovna, N. Y., Nasirovna, M. R., Tursunaliyevna, A. M., Abduvaliyevna, A. N., & Ravshanovna, U. S. (2023). Psychodiagnostics of psychosomatic diseases. *Journal of survey in fisheries sciences*, 10, 2903-2911.
3. Мелибаева, Р. (2018). ТАЛАБАЛАР
ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК
МЕХАНИЗМЛАРИ.
4. Karimovna, N. Y. (2023). COGNITIVE DISORDERS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 12, 126-131.
5. Ziyo.net